XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND TUMANI
K E N G A SH I

Samarqand t. 140300, Gulobod qo'rg'oni, 1-uy. Tel: (66) 612-51-89

2023 - yil 30 - dekabr VI-90-126-7-103-K/23 Samarqand tumani hokimligi

Samarqand viloyati Samarqand tumanining 2024 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

“2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosi ta’minlash hamda Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi VI-94-126-7-0-K/23-sonli “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2024-yil uchun Samarqand tumani byudjetini qabul qilish bo‘yicha Xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining oltinchi chaqiriq to‘qsoninchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-94-126-7-0-K/23-sonli qaroriga asosan:

Samarqand tumani byudjetiga Samarqand viloyati byudjetidan ajratilgan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert 88 485 477,0 ming so‘m, shundan mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlar 46 276 000,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi;

tuman byudjetining aylanma kassa mablag‘i 1 512 000,0 ming so‘m miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun tuman byudjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-

ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman byudjetidan 2024-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2 162 507,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

5. Tuman hokimligi:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

byudjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin;

soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

tegishli ravishda hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning byudjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Samarqand tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha

doimiy komissiyasi (Sh.Voseyev), tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Ganiyev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **A.Umarov**

Xalq deputatlari Samarqand tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-90-126-7-103-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024 yil uchun Samarqand tumani mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**154 426 400,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	37 191 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	14 738 000,0
3	Aksiz solig‘i, jami	2 862 000,0
	shu jumladan:	
	- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*2 862 000,0*
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 312 000,0
5	Yuridik shaxslar yer solig‘i	9 926 400,0
6	Aylanmadan olinadigan soliq	20 080 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	24 847 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	24 800 000,0
9	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 230 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 910 000,0
11	Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	6 500 000,0
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	170 000,0
13	Yig‘imlar	1 860 000,0

Xalq deputatlari Samarqand tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-90-126-7-103-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun Samarqand tumani mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**242 911 877,0**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	33 286 864,0
2	Tibbiyot birlashmasi	109 947 741,0
3	Madaniyat bo‘limi	5 316 294,0
4	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	19 052 442,0
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2 715 000,0
6	Irrigatsiya bo‘limi	802 500,0
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 295 923,0
8	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	6 502 343,0
9	Soliq inspeksiyasi	6 298 133,0
10	Hokimiyat	57 694 637,0